

O'QUVCHILARDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Usmonova Hanifa Davir qizi

Qarshi shahar 3-son politexnikum ona-tili va adabiyoti fan o'qituvchisi
hanifausmonova95@gmail.com +99888.616.95.17

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirishning ahamiyati, uni ta'lim jarayonida samarali yo'lga qo'yishning asosiy metodlari va vositalari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o'qituvchi faoliyatida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'rni ham tahlil qilinadi. Ushbu maqolada nutq odobi va muloqot madaniyati mutafakkir ajdodlarimiz va jadid ma'rifatparvarlari tomonidan baholanishi, mutafakkir ajdodlarimizning ushbu sohadagi meroslari haqida fikr yuritilgan. O'quvchi va talaba yoshlarda muloqot madaniyatini shakllantirish nutq odobi me'yorlariga rioya qilish ko'nikmalarining asosini tashkil etuvchi birliklar haqida fikr yuritilgan. Maqola o'qituvchilar hamda ilmiy pedagogik jamoatchilik uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Nutq madaniyati ta'limot sifatida qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa-da, unga qadar Misrda, Ossuriyada, Vavilon va Hindiston mamlakatlarida paydo bo'lgan. U paytda davlat arboblarning obro'-e'tiborlari va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik san'atini qay darajada egallaganliklariga bog'liq bo'lgan. Notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan barobar qadrlangan va bu ikki san'atning mohir egalarigina yuqori lavozimlarga saylangan. Notiqlik eramizdan oldingi V asrda Yunonistonda shakllangani haqida fikrlar bor

Kalit so'zlar: Nutq madaniyati, og'zaki nutq, yozma nutq, pedagogik texnologiya, o'qituvchi, o'quvchi, tafakkur, kommunikativ kompetensiya. nutq odobi, muomala madaniyati, lutf, fasohat, notiqlik, so'z, so'z boyligi, matn, ona tili, o'quvchilar, Xayratul Abror.

KIRISH

Nutq madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohasidir. Ushbu fanning mustaqil bo'limi sifatida, u mamlakatimizda yuz bergan tub ijtimoiy o'zgarishlar ta'siri ostida shakllandi. Faol ijtimoiy faoliyatga keng odamlarni jalb qilish ularning nutq madaniyatini oshirishga e'tiborni kuchaytirishni talab qildi". Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'lik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega. Madaniyatning keng tushunchasi, shubhasiz, aloqa madaniyati, nutq xulq-atvori madaniyati deb nomlanadigan narsani o'z ichiga oladi. Unga egalik qilish uchun nutq

odob-axloqining mohiyatini tushunish muhimdir. XV asrdayoq o'zbek adabiy tilining Nutq madaniyati va uning o'ziga xos me'yorlari bo'lgan. Alisher Navoiy o'zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o'z davri nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo'shgan bo'lsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o'sha davr tili va nutq madaniyati ma'lum darajada aks etgan. "Yaxshi so'z — jon ozig'i", "Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin", "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", "Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak — nodonning ishi" kabi maqol va hikmatli so'zlarning paydo bo'lishi ham o'zbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan e'tibor kuchli bo'lganidan darak beradi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning shaxsiy kamolotini ta'minlash, ularni mustaqil fikrlovchi, o'z fikrini ravon ifoda eta oladigan shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb masalalardan biridir. Nutq madaniyati – bu faqat to'g'ri so'zlash emas, balki o'z fikrini aniq, mantiqan asoslab, estetik tarzda bayon eta olish qobiliyatidir. Ona tili darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish o'qituvchi mahorati, dars jarayonida tanlanadigan metodlar va o'quv muhitiga bevosita bog'liqdir. Insonning axloq-odobi, muomala madaniyatini ko'rsatadigan so'zlarni saralab qo'llash, ularning mazmun-mohiyatini chuqur anglash ko'nikmalarini o'quvchilarda tizimli tarzda shakllantirish nafaqat ona tili darslarining, balki ta'lim jarayonining asosiy maqsadiga aylanishi kerak. Mazkur ko'nikmalar ona tili, adabiyot, tarbiya hamda tarix darslarida ajdodlarimiz tajribasining ajralmas qismi sifatida o'quvchilarga taqdim etilishi lozim. Chunki mutafakkir ajdodlarimiz so'zga zukkolik bilan munosabatda bo'lganlar va bu haqida qimmatli fikrlarini qoldirganlar. O'quvchi yoshlarda o'z fikrlarini noaniq bayon qilish, ilm o'rganish, so'z boyligini oshirishga yuzaki qarash, bu borada yalqovlik qilishdan orlanish tuyg'usini shakllantirish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki o'quvchilar sabr-toqat bilan so'z ma'nolarini o'rganishlari har bir so'zni chuqur tahlil qilishlari, tahlil-mutolaaga oid faoliyatni amalga oshirishga muntazam e'tibor qaratishlari alohida ahamiyatga ega. Zero nutq odobi va nutq madaniyatiga rioya qilish azal-azaldan o'zbek xalqining axloq-odobi ifodasi hisoblangan. Nutq odobi xalq donishmandlari va mutafakkir ajdodlarimizning tafakkuri maxsuli nutq etiketi ifodasi hisoblangan. Ushbu madaniyatning asosiy ko'rinishlari etnopedagogik meros orqali bugun bizgacha yetib kelgan. Turli-tuman shevalarga xos bo'lgan so'zlar, fikrlar birinchi navbatda etnopedagogik qadriyat hisoblanadi. U inson nutqini boyitib tilning imkoniyatlarini kengaytiradi. Yozma obidalar, etnopedagogik vositalar til va nutq madaniyatining tashuvchilari hisoblanadi. Turli-tuman shakllarga ega bo'lgan etnopedagogik qadriyatlarda ajdodlarimiz nutqiga xos bo'lgan madaniyat o'z ifodasini topgan. Shu jumladan "Avesto", "Qadimgi xalqlardan qolgan yozma yodgorliklar" (Abu Rayhon Beruniy), "Fozil odamlar shahri" (Abu Nasr Forobiy), "Tib qonunlari" (Ibn Sino), "Devonu lug'otit turk" (Mahmud Qoshg'ariy), "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Xojib), "Xibbatul ul-haqqoyiq" (Ahmad Yugnakiy), "Qobusnoma" (Kaykovus)da nutq va so'zlash odobi, muomala madaniyatiga oid ko'plab fikrlar bayon qilingan.

Asosiy qism: O'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish — bu ularning fikrlash, tushunish, so'z boyligini kengaytirish hamda to'g'ri talaffuz, imlo va uslubiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun quyidagi metod va vositalar muhim ahamiyatga ega:

Grammatik meyorga rioya qilish deganda gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish, o'zak va qo'shimchalarni qo'shishda xatoga yo'l qo'ymaslik, kelishik qo'shimchalarini o'z o'rnida qo'llash, ega va kesimning mosligiga rioya qilish, ikkinchi darajali bo'laklarni to'g'ri qo'llash, so'zlarning bog'lanish qonuniyatlariga amal qilish kabilar tushuniladi. Muloqot jarayonida bunday grammatik meyorlariga amal qilmaslik natijasida nutqning to'g'riligi buziladi. Nutqning aniqligi deganda undagi til birliklarining o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishi tushuniladi. Agar notiqning o'zi fikr yuritmoqchi bo'lgan nutq predmetini yaxshi bilsa, unga mos so'zlar tanlasa, uning nutqi aniq bo'ladi. Nutqning mantiqiyliги uning asosiy sifatleri to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'liq. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib keladi. Mantiqiy izchillikning (логический систем) buzilishi esa tinglovchi va o'quvchiga ifodalanayotgan fikrning to'liq borib yetmasligiga, ba'zan umuman anglashilmasligiga olib keladi. Xullas, nutqning mantiqiyliги deganda fikrlar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq, maqsadga muvofiq ravishda ishlatiladigan nutqni tushunamiz. Nutqning sofligi. Nutqning sofligi deganda, eng avvalo, uning adabiy tilning leksik meyoriga muvofiq kelish-kelmasligi tushuniladi. Darhaqiqat, madaniy nutq o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilishi, turli til, g'ayri adabiy til unsurlaridan xoli bo'lishi kerak. Nutqning sofligiga putur yetkazuvchi lisoniy unsurlar, asosan, dialektizmlar va varvarizmlar dir. Dialektizm va varvarizmlar, jargon va argolar oddiy so'zlashuv nutqida va badiiy adabiyotda keng qo'llaniladi. Badiiy adabiyot tilida dialektizm, varvarizm, jargon va argolar ma'lum badiiy-estetik vazifani bajarishi, muallifning ma'lum g'oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin. Parazit so'zlar deb ataluvchi lug'aviy birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular, asosan, so'zlashuv nutqida qo'llaniladi, notiqning o'z nutqini kuzatib bormasligi, e'tiborsizligi natijasida paydo bo'ladi va odatga aylanib qoladi. Masalan, ayrim kishilar o'zlari sezmagani holda demak, xo'sh, xo'p kabi so'zlarni qaytaraverishga o'rganib qolib, ularni parazit so'zlarga aylantirib qo'yishgan. Nutqning boyligi. Nutqning boyligi notiqning til imkoniyatlaridan qay darajada foydalanganligi bilan aniqlanadi. Nutqda tilning sinonimlar, badiiy o'xshatishlar, ibora va maqollar o'rinli aks etgan bo'lsa, bunday nutq boy nutq sanaladi. Nutqning ta'sirchanligi (ifodaliligi). Nutqning ta'sirchanligi tushunchasi, asosan, og'zaki nutqqa nisbatan qo'llaniladi. Chunki nutqning ta'sirchanligini belgilashda bu nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyat e'tiborga olinadi. Nutqning ta'sirchanligini oshirishda ohang ham muhim o'rin tutadi. Ohangning o'zgarishi nafaqat ta'sirchanlikni, ba'zan gap mazmunining o'zgarishiga ham sababchi bo'ladi.

1. Interfaol metodlardan foydalanish. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Munozara”, “Bahs” kabi metodlar o‘quvchilarni fikr bildirishga, o‘z nuqtayi nazarini himoya qilishga o‘rgatadi.

2. Og‘zaki nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari. Hikoya tuzish, she‘r o‘qish, matnni qayta so‘zlab berish kabi mashqlar o‘quvchilarni erkin so‘zlashga o‘rgatadi.

3. Yozma nutqni rivojlantirish. Insho yozish, matn tahriri, maqola yozish kabi topshiriqlar o‘quvchilarning yozma fikrlash malakasini mustahkamlaydi.

4. Axborot texnologiyalaridan foydalanish. Multimediali darslar, elektron testlar va interaktiv taqdimotlar orqali nutqiy mashg‘ulotlarni yanada qiziqarli tashkil etish mumkin.

5. Til va madaniyat uyg‘unligi. O‘quvchilarga milliy qadriyatlar, maqol va matallar, badiiy asarlardagi til boyliklari orqali nutq madaniyatini singdirish yuqori samaradorlik beradi.

Mutafakkir ajdodlarimiz til boyliklarini o‘zlashtirish uni o‘z o‘rnida qo‘llay olish har bir inson uchun zarurligini qayta-qayta e‘tirof etganlar. Alisher Navoiy ham til va nutq odobi haqida o‘zining qimmatli fikrlarini qoldirishga muvaffaq bo‘lgan. U til so‘zining ko‘plab ma‘nolariga ega ekanligini ko‘rsatib o‘tgan. Jumladan:

1. Tilning o‘zaro fikr almashinish muloqot vositasi ekanligi.
2. Tilning og‘zaki yoki yozma matn ma‘nosida qo‘llanilishi.
3. Tilning nutqiy jarayon, aniq ifoda vositasi ekanligi.
4. Muayyan millat va elatning o‘zaro aloqa almashinuv quroli ekanligi va hokazo.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida til va nutqning ijtimoiy-axloqiy vazifalarini ham belgilab bergan. Til birinchi navbatda muayyan millat vakillari va millatlararo aloqa vositasi ekanligini 1 Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 224 b. 33-b. “YANGI O‘ZBEKISTONDA O‘ZBEK ADABIY TILINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR, TAVSIYALAR” MAVZUSIDA RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI 2024-YIL 21-OKTABR 14 ko‘rsatib bergan. Alisher Navoiy til va nutqning o‘zaro munosabati, uning ijtimoiy-axloqiy funksiyalarini “Muhokamat ul-lug‘atayn”da batafsil ochib bergan: “Va bu so‘zning tanavvui taaquldin nari va tasavvurdin tashqaridur. Agar mubolag‘asiz ijmol yuzidin qalam surulsa va ixtisor jonibidin raqam urulsa, yetmish ikki nav’ bila taqsim toparida xud hech so‘z yo‘qturki, yetmish ikki firqa kalomig‘a dalolat qilg‘ay, ammo ulcha tafsiliydur”.¹ Buyuk mutafakkir nutq odobining ijobiy xarakterini ta‘minlovchi jihatlari va omillarini ham ko‘rsatib bergan, shuningdek nutq odobiga zid inson nutqini buzadigan jihatlarni ham ajratgan. Mutafakkir shoirning nutq odobiga oid qarashlari bugungi kunda ham o‘quvchi va talaba yoshlarda nutq madaniyatini shakllantirishda muhim ko‘rsatma bo‘lib xizmat qiladi. U “fasohat” so‘zini nutq madaniyati tushunchasini anglatuvchi, lutf san‘atini esa nazokat bilan so‘zlash madaniyati ifodasi ekanligini ta‘kidlagan.

O‘qituvchining asosiy vazifasi — har bir o‘quvchining individual nutqiy qobiliyatini hisobga olgan holda ularda tildan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Buning uchun o‘quv jarayonida motivatsiya, rag‘bat va ijodiy muhit muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda o'quvchi va talabalarning nutqini tahlil qiladigan bo'lsak nutq odobi madaniyatiga zid keladigan bir qator holatlarni kuzatishimiz mumkin.

Ko'pgina yoshlar o'z nutqlarini salbiy ma'no anglatuvchi so'zlar, haqorat so'zlar bilan buzmoqdalar. Mutafakkirlar va jadid ma'rifatparvarlari yoshlarga qarata o'git berib ko'zga tashlangan har qanday voqeahodisalarni so'zlash inson axloqiga xos ish emasligini ta'kidlaganlar.

Ular kerakli joyda kerakli so'zni gapirish lozimligini uqtirganlar. Uzoqdan uzoq gapirish, bir fikrni qayta-qayta takrorlash nutq madaniyati me'yorlariga zid hisoblanadi. Bunday odamlarni ezma, sergap kishilar deb atash tajribasi mavjud.

Fikrni o'rnisiz takrorlayverish ham nutq me'yorlariga zid holat hisoblanadi. Mazkur holatni Alisher Navoiy quyidagicha ifodalaydi: Bir deganni ikki demak xush emas, So'z chu takror topti dilkash emas.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, nutq madaniyatini shakllantirish o'quvchining tafakkuri, dunyoqarashi va muloqot madaniyatini rivojlantiruvchi muhim jarayondir.

O'qituvchi bu jarayonda yo'l boshchi sifatida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda ishlasa, o'quvchilarning nutq madaniyati yuqori darajada shakllanadi.

Natijada ular jamiyatda faol, madaniyatli va fikrini erkin ifoda eta oladigan shaxs bo'lib yetishadi. Ajdodlarimiz nutq madaniyati sohasida juda katta meros qoldirganlar. Ushbu merosning asosini nutq odobi tashkil etadi.

O'quvchi va talaba yoshlarda nutq odobi, muomala va muloqot madaniyatini shakllantirish ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'quvchi yoshlarda va nutq madaniyatini shakllantirish uchun ularga so'z san'ati, notiqlik madaniyati hamda muloqot odobiga oid bilimlarni tizimli tarzda taqdim etish maqsadga muvofiq.

Maktab ta'limida nutq odobi, muloqot madaniyatining asosini nutqiy, lingvistik hamda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan filologik bilimlar tashkil etadi. Nutq madaniyati avvalo, to'g'ri, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashdir.

Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutqimizni yaxshilash har birimizning vazifamiz. Buning uchun talaffuzda, so'z shakllaridan foydalanishda, jummalarni tuzishda xato qilmaslik uchun nutqimizni kuzatib borishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. — Toshkent, 2020.

2. Yo'ldoshev M., Tojiyev M. Ona tili o'qitish metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2018.

3. G'ulomov A. va boshqalar. Til va nutq madaniyati asoslari. — Toshkent: Fan, 2017.
4. Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
5. www.edu.uz — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi rasmiy sayti.